



Din va ilm: o'rtasidagi munosabat

Samatov Xurshid

Ilmiy rahbar

Shavkatova Gulzoda

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti Samarqand

filiali, 1-bosqich talabasi,

Elektron pochta: shavkatovagulzoda995@gmail.com

Annontatsiya: Mazkur maqolada din va ilm o'rtasidagi murakkab, ammo chuqur ahamiyatga ega bo'lgan munosabat keng qamrovda tahlil qilinadi. Ayniqsa, o'rta asrlarda musulmon olimlarining ilm-fan va diniy tafakkurni uyg'unlashtirgan faoliyati misolida din va ilm bir-birini to'ldiruvchi kuchlar sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, Yevropa tarixida kuzatilgan cherkov va ilm-fan o'rtasidagi ziddiyatlar, Galiley va Kopernik kabi olimlar misolida yoritiladi. Maqolada shuningdek, falsafiy nuqtai nazardan din va ilmning o'zaro aloqasi, turli yondashuvlar orqali tahlil qilinadi: ziddiyatli, ajratilgan va uyg'unlikdagi munosabat shakllari tahlil qilinib, mashhur mutafakkirlarning fikrlariga murojaat qilinadi. Jumladan, Albert Eynshteynning "Ilm dinsiz oqsoq, din ilmsiz ko'r" degan fikriga asoslanib, bu ikki tushunchaning bir-birini boyitishi mumkinligi asoslanadi. Zamonaviy davrda esa ilm-fanning tez sur'atlarda rivojlanib borayotgani bilan bir qatorda, insoniyat yangi axloqiy va ma'naviy muammolarga duch kelayotgani ta'kidlanadi. Bunday vaziyatda diniy qarashlar ilm-fan natijalarini to'g'ri baholash,



ularning insoniyat manfaatiga xizmat qilishi uchun muhim mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Inson, din, ilm, kamolot, munosabat, qalb, jamiyat.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the complex yet deeply significant relationship between religion and science. Particular attention is given to the Middle Ages, where Muslim scholars successfully integrated scientific inquiry with religious thought, illustrating how religion and science can complement each other. In contrast, the article also highlights the historical conflicts between the Church and science in Europe, exemplified by figures such as Galileo and Copernicus. Furthermore, the article explores the philosophical perspectives on the relationship between religion and science, analyzing different approaches including conflict, separation, and integration. It references renowned thinkers, such as Albert Einstein, whose famous quote—"Science without religion is lame, religion without science is blind"—underscores the idea that these two realms can enrich one another. In the modern era, rapid scientific advancement has introduced new ethical and moral challenges. In such a context, religious perspectives serve as a crucial guide for evaluating the outcomes of scientific progress and ensuring they serve the greater good of humanity.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются сложные, но чрезвычайно важные взаимоотношения между религией и наукой. Особое внимание уделяется Средневековью, когда мусульманские ученые успешно сочетали научные исследования с религиозным мышлением, демонстрируя, что религия и наука могут дополнять друг друга. Наряду с этим в статье освещаются конфликты между церковью и наукой в истории Европы на примере таких ученых, как Галилей и Коперник. Также в статье исследуется философская точка зрения на взаимоотношения между религией и наукой, анализируются различные подходы — конфликтный, разделённый и гармоничный. Приводятся мнения известных



мыслителей, в том числе Альберта Эйнштейна, чья знаменитая фраза "Наука без религии хрома, религия без науки слепа" подчёркивает возможность взаимного обогащения этих двух сфер. В современную эпоху, наряду с быстрым развитием науки, человечество сталкивается с новыми этическими и духовными вызовами. В такой ситуации религиозные взгляды могут служить важным ориентиром для правильной оценки научных достижений и обеспечения их пользы для человечества.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida din va ilm har doim muhim o‘rin egallagan. Har ikkisi ham haqiqatni izlashga, inson ongini yuksaltirishga xizmat qiladi, biroq yo‘llari, metodlari va maqsadlarida farqlar mavjud. Din — inson qalbining, ma’naviyatining, axloqining yo‘l-yo‘rig‘ini belgilovchi kuch bo‘lsa, ilm — borliqni, tabiat qonuniyatlarini, moddiy olamni o‘rganishga intiladigan faoliyatdir. Shu sababli, bu ikki soha o‘rtasidagi munosabat doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan.

Din (arabcha: „e’tiqod“, „ishonch“, „itoat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar, mifologiyaga qat’iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to‘plamidir^[1]. Shuningdek, shaxsiy e’tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo‘lishi ham mumkin. Barcha patriarxal dinlar bir g‘oyani ilgari surishadi: olam va odamlarni ikkiga, biri muqaddas, boshqasi kufr bo‘lgan qismlarga bo‘lish. Din odatda hech kim tomonidan kuzatilmaydigan va aniqlanmaydigan, g‘ayritabiiy, muqaddas, eng yuqori shaxs yoki mavjudotga bog‘langan o‘zak e’tiqod ustiga qurilgan ijtimoiy tizim, deb ham ta’riflanadi. Dinni shuningdek „turmush tarzi“ ham deyishadi. Dinlarning kelib chiqishi turli madaniyatlarda turlicha kechgan. Ayrim dinlar ijtimoiy tartibni belgilab kelgan bo‘lsa, boshqalari insonning ichki kechinmalari va ruhiyatini tartibga solishni ko‘zlaydi.

„**Din**“ so‘zini ba’zi hollarda „e’tiqod“ ma’nosida ham qo‘llashadi, lekin bu doim o‘rinli emas, zero e’tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas. Din –



xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi.

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umuman olganda din – ishonmoqlik tuyg'usidir. Bunday tuyg'usi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki biron-bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng go'zal ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo'lgan. Dinning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va b.dir. Shuningdek, urug'qabila dinlari, milliy dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon dinlari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga



kelgan. Din avvaliga ko‘pxudolik (poli-teistik), so‘ngra yakkaxudolik (monoteistik) ko‘rinishida bo‘lgan. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg‘u va sig‘inish ob‘yektlarini o‘z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma‘lum ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta’siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o‘z ta’limoti doirasida saqlashga harakat qiladi, o‘z qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini o‘taydi. Dinlar o‘z marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qat’iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo‘yadi, shuningdek, o‘z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o‘zaro aloqada bo‘lishini ta‘minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o‘z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me‘yorlarini o‘ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avlodlardan avlodga yetkazish ishiga yordam beradi. Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo‘lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo‘lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko‘targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta’qib ostiga olgan hollar tarixda ko‘p uchraydi. Yaqin o‘tmishda – sho‘rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma‘naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to‘la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko‘rsatish imkoniyati yaratildi. O‘zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e’tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida faoliyat yuritmoqdalar.

Tarixiy yondashuv: Uyg‘unlik va qarama-qarshilik

Tarixda din va ilm o‘rtasidagi munosabat har doim bir xil bo‘lmagan. Islom olamida, ayniqsa IX–XII asrlarda, din va ilm bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘un holda



rivojlangan. Ibn Sino, Al-Farobiy, Al-Biruniy kabi buyuk mutafakkirlar diniy bilimlarni chuqur egallab, shu bilan birga tibbiyot, matematika, astronomiya, falsafa kabi fanlarda ham katta yutuqlarga erishgan. Ular uchun ilm Alloh yaratgan olamni chuqur tushunish vositasi edi. G'arbda esa Yevropa o'rta asrlarida cherkov va ilm-fan o'rtasida ziddiyatli holatlar ko'p bo'lgan. Masalan, Kopernikning geotsentrik (Yer markazida emas, Quyosh markazida) modelga oid g'oyalari yoki Galileyning teleskopik kuzatuvlari cherkov tomonidan bid'at deb qoralangan. Bu holatlar din va ilm o'rtasida chuqur ziddiyatlar yuzaga kelganining tarixiy misollaridir.

Zamonaviy davrda din va ilm

Bugungi kunda ilm-fan misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda: sun'iy intellekt, biotexnologiyalar, gen muhandisligi, kosmik tadqiqotlar va boshqalar. Ammo bu rivojlanish bilan birga insoniyat yangi axloqiy, ma'naviy muammolar oldida turibdi. Misol uchun, sun'iy ongning jamiyatdagi o'rni, klonlash texnologiyalarining cheklari, ekologik xavflar kabi masalalar nafaqat ilmiy, balki diniy-axloqiy yondashuvni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din jamiyatga ilm-fanning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini anglashda muhim mezon bo'la oladi. Ayniqsa, ilm-fan erkinligining insoniylik, adolat, rahm-shafqat kabi tamoyillar bilan uyg'un bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, din va ilm o'rtasidagi munosabat murakkab, ammo muhimdir. Tarixiy tajriba, falsafiy yondashuvlar va zamonaviy ehtiyojlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki soha bir-birining dushmani emas, balki sherigi bo'lishi mumkin. Insoniyatning haqiqiy taraqqiyoti uchun din va ilm uyg'unlikda harakat qilishi lozim. Dinsiz ilm axloqsiz taraqqiyotga olib kelishi mumkin, ilmga asoslanmagan din esa hayotni tushunishda yetarli bo'lmaydi. Shu bois, ular orasida muloqot, tushunish va hurmat bo'lishi jamiyatning barqarorligi va yuksalishi uchun muhim shartdir. Din va ilm — bu ikki tushuncha insoniyat tarixida har doim muhim o'rin egallab kelgan. Din insonni ma'naviyatga, halollikka, sabr-toqat va adolatga undasa, ilm uni tafakkur qilish, kashf etish va rivojlanishga olib boradi. Bu ikki yo'l boshqacha ko'rinsa-da, aslida ikkalasi ham haqiqatni izlashga xizmat qiladi. Din ko'proq qalb va ruhiy olamni tartibga solsa, ilm



materiya va borliqni anglashga intiladi. Ular bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi omillardir. Tarixga nazar tashlasak, musulmon olimlar — Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk allomalar din asosida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shganlar. Bu esa din va ilm uyg‘un yashagan davrlar eng yuksak taraqqiyotga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi. Ilmga tayangan din yolg‘on xurofotlardan holi bo‘ladi, dinga suyanadigan ilm esa insonparvarlik va axloqiylikdan yiroqlashmaydi. Bugungi kunda ham biz ana shu uyg‘unlikni saqlashimiz lozim. Yosh avlodga diniy va ilmiy bilimlarni birgalikda yetkazish, ularni axloqan pok, ilmda chuqur tafakkur qiladigan shaxs qilib tarbiyalash — bu har bir jamiyatning taraqqiyoti uchun zarurdir. Chunki din ruhni boyitadi, ilm esa aqlni charxlaydi. Ikkalasi birgalikda esa to‘laqonli, yuksak ma’naviyatli jamiyatni vujudga keltiradi. Shu sababli, din va ilmni qarama-qarshi emas, balki hamkor holda tushunish, ularning uyg‘unligidan to‘g‘ri foydalanish har bir insonning, ayniqsa yosh avlodning eng muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Ibn Sino.** (1025). *Shifo kitobi*. Tibbiyot va falsafa sohasidagi ilmiy asar.
2. **Al-Farobiy.** (10-asr). *Al-Madina al-Fadila* – Ideal jamiyat haqida asar.
3. **Al-Beruniy.** (11-asr). *Al-Qanun al-Mas'udi* – Astronomiya, matematika va geografiya sohasida ilmiy asar.
4. **Ibn Rushd.** (12-asr). *Bidayat al-Mujtahid* – Fiqh va shar’iy qonunlarni sharhlashga bag‘ishlangan asar.
5. **Kopernik, Nikolay.** (1543). *De revolutionibus orbium coelestium* – Yer markazida bo‘lgan geotsentrik modelga oid asar.
6. **Galileo Galilei.** (1632). *Dialogo sopra i due massimi sistemi del mondo* – Koinot haqidagi ilmiy asar.
7. **Ruhollah Khomeini.** (1970). *Islamic Government* – Islomiy siyosat va davlat boshqaruvi haqidagi asar.



8. **Seyid Hossein Nasr.** (2002). *Islam and the Problem of Modern Science* – Ilm va din o'rtasidagi munosabatlar haqida ilmiy maqola.
9. **Fazlur Rahman.** (1982). *Islamic Modernism: A Critical Perspective* – Islomda ilmiy modernizm va diniy qarashlar.
10. **Max Weber.** (1905). *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism* – Din va jamiyatlardagi ijtimoiy vazifalari haqidagi asar.
11. **E. Durkheim.** (1912). *The Elementary Forms of the Religious Life* – Din va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida ilmiy asar.
12. **Carl Jung.** (1938). *Psychology and Religion* – Dinning psixologik tahlili.